

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI O'QITISH USLUBI

*Soliyev Jo'ramurot Otaqulovich<sup>1</sup>, Umirova Nilufar Jo'ramurotovna<sup>2</sup>,  
Egamova Ozoda<sup>3</sup>*

*<sup>1</sup>A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedra  
o'qituvchisi, <sup>2</sup>Jizzah ixtisoslashtirilgan san'at maktabi tasviriy san'at  
bo'limi etakchi o'qituvchisi, <sup>3</sup>Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
yo'nalishi talabasi, Jizzax, O'zbekiston  
e-mail: [odil.soliev@bk.ru](mailto:odil.soliev@bk.ru)*

**Annotasiya:** *Maqola natyurmort janrida o'quvchilarning tushunchasini singdirish va ularning dunyoqarashini rivojlantirish masalalari haqida so'z yuritiladi. O'quvchilarga natyurmort ishlash mashg'ulotlari nazariy bilimlarga ega bo'lishi borasida amaliy maslahatlar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Natyurmort, rangtasvir, kompozitsiya, realistik san'at, janr, kolorit, perespektiva, blik.*

\*\*\*

**Аннотация.** *В статье рассматриваются вопросы развития у учащихся понимания и развития их мировоззрения в жанре натюрморта. Ученикам будут даны практические советы о том, как получить теоретические знания по натюрмортам.*

**Ключевые слов:** *Натюрморт, живопись, композиция, реалистическое искусство, жанр, цвет, перспектива и блик.*

\*\*\*

**Annotation.** *The article discusses the development of students' understanding and development of their worldview in the genre of still life. Students will be given practical advice on how to gain theoretical knowledge of still lifes.*

**Key words:** *Still life, painting, composition, realistic art, genre, color, perspective and lens flare.*

O'rta maktab dasturidagi tasviriy san'at darslari o'z oldiga o'quvchilarga hayotni estetik idrok qilish, narsalarning shakl - shamoili va rangidagi go'zalliklarni ko'ra bilish ko'nikmalarini o'stirish, ayrim narsalar va oddiy natyurmortlarning o'ziga qarab yoki xotiralardan rasmlarni chizish malakalarini xosil qilish vazifasini qo'yadi. Shuningdek, o'quvchilarda narsalarni tasvirlashda perspektiva qoidalariga jumladan rang perespektivasiga amal qilgan holda, ularning yorug'-soya, yarim soyalarini, blik va hokozalarini to'g'ri tasvirlay olishga o'rgatish muxim ahamiyatga egadir. Mavzu asosidagi manzara janri bo'yicha rasm chizish mashg'ulotlarida adabiy, badiiy asarlar bilan tanishtirgan holda jonli tabiatda, kishilar hayotidagi voqealar va hodisalarni kuzatish barobarida rasm chizish uchun biron syujet tanlay ola bilish juda zarurdir. Dekorativ rasm

chizish darslarida esa haqqoniy shakllarni qayta ishlash orqali ulardan mustaqil ravishda kompozitsiya tuzish, turli naqshlardan narsalarni badiiy bezash ishlarida foydalanish malakalarini shakllantirib boradi. Yuqoridagicha darslarni olib borishda o'lkamiz mahalliy ashyolaridan foydalanish, ya'ni bular xalqlarimizning boy tarixiy an'analari, dekorativ amaliy san'at namunalari, qadimgi idish-tavoqlar, uy ro'zg'or buyumlari va hokozalar bo'lishi mumkin. Bular o'quvchilar ongida, qalbida abadiy saqlanib qoladi va ma'naviy boyligi ortadi.

5-sinf misolida narsalarning o'ziga qarab rasm ishlash mashg'ulotlaridan biri haqida so'z yuritamiz. Natyrmort uchun ham soatlar berilgan bo'lib, bu darslarda hajmli geometrik shakllar va shu shaklga o'xshash narsalar rasmi chizdiriladi. Bu mashg'ulotlarda predmetning perspektiva qoidalariga rioya qilingan holda hajmini, shuningdek, yorug' soylarini tasvirlay olishga o'rgatiladi. O'qituvchi mustaqil ish davrida o'quvchilar ishidagi tasvirlarning haqqoniyligini ta'minlashi va ranglarning toza ishlashiga alohida e'tibor berishi, sinifdagi grafik ishlarning sifatini nazorat qilib borishi lozim. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslari o'qituvchining darsga tayyorlanishidan tortib darsning tugallanishigacha davom etadi. O'qituvchi naturaning sodda yoki murakkabligini inobatga olgan xolda bir necha ko'rgazmali ashyolar tayorlaydi. Bu ko'rgazma bosqichlar asosida tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



1-rasm Natyrmort ko'rinishi.

Natyrmort sinf xonasining o'quvchilarga yahshi ko'rinarli joyiga qo'yiladi. Natura uchta predmetdan iborat ko'za, anor va likopcha, bularning shakli, tuzilishi turlicha bo'lib turmushda har doim qo'llanib kelingan bo'lib o'quvchilarga juda tanishdir. Rangi, yorug'-soylari, chizish bosqichlari tahlil etiladi va kezi kelsa sinf doskasiga chizib ko'rsatiladi. Chizilgan rangli natyurmort bosqichlari va mavzuga yaqin bo'lgan rassomlarimiz tomonidan ishlangan natyrmort asarlari reproduksiysi ko'rgazma ashyolar sifatida o'quvchilarga vaqti-vaqti bilan ko'rsatib boriladi.



2-rasm. To'rt bosqichda ishlangan ko'rinish.

Dars o'quvchilarning uy vazifalarini ko'rish va o'tilgan mavzuni esga olish, uni yangi mavzu bilan bog'lash orqali boshlanadi va baholanadi. Yangi mavzuni bayon etishda vazifani bolalarga tushuntirish, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.



3 a,b-rasm.

O'quvchilar tushunchasini yanada to'ldirish maqsadida mavzuga oid bo'lgan boshqa ko'rinishdagi natyrmortlar namunasi y'ani , kosadagi uzum, shaftoli va kesilgan limon bo'lagi yoki dastali ko'za, krushka va olma reproduksiyasi xavola etilishi mumkin.

5- sinfda "Ko'za, anor va likopchanning o'ziga qarab rasmini chizish" darsi quyidagacha savollar asosida tahlil etiladi:

1. Ko'za deb nimaga aytiladi?
2. Ko'zaga nima solinadi?
3. Ko'za shakliddagi qanday narsalarni bilasiz?

4. Qarshingizdagi ko'za qanday holatda turibdi?
5. Uning ko'rinishi sharsimonmi?
6. Anor oldinda sizga yaqin turibdi?
7. Yaqin turgan anor orqadagi narsaga nisbatan katta ko'rinayaptimi yoki kichkinami, bularning katta–kichik ko'rinish sababi nimada, anorning rangi qanaqa?
8. Likopchanning ko'rinishichi nimani eslatadi ?
9. Natyurmortning yorug'-soyalari qanday ko'rinishga ega?
10. Natyurmortdagi eng yorug' joyi blik, och va eng to'q soyalarni ko'rsata olasizmi.

Savol- javoblardan keyin o'qituvchi javoblarni umumlashtirib tahlil qiladi va kamchiliklarini to'ldiradi. Tasviry san'at darslarida o'quvchilarning qiziqishini oshirish, bilimlarini puxta o'zlashtirishlariga erishish uchun bajarilgan ishlarni ko'rib chiqish ularni odilona baholash va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish yo'llarini ko'rsatib berishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu tariqa dars yakunida, uyga vazifa Bir dona olma va bir dona limondan iborat natyurmort chizib kelish topshirilib, qisqacha tushuncha va ko'rsatma beriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. T.Qo'ziyev, S.Abdirasilov,U.Nurtoyev, A.Sulaymonov “Izobrazitel'noe iskusstvo 5-klassa”. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti. 2020 yil.
- 2.Nurtoyev O. Rangshunoslik asoslari.-Toshkent, Ilm-Ziyo 2008 yil.
- 3.R.Xasanov Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi Toshkent “O'qituvchi” nashriyoti. 1977yil.
4. Internet saytlari.